ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BO‘LGAN BOLALAR UCHUN TASVIRIY SAN’ATNING AHAMIYATI

Muminova Hosiyatxon Avaz qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universitetining
‘’Maxsus Pedagogika’’ yo’nalishi 3-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar uchun tasviriy san’atning ahamiyati yoritilgan. Rivojlanishida turli xil nuqsonlari bo‘lgan bolalar, jumladan, eshitish va ko‘rishida kamchiliklari mavjud, aqliy rivojlanishi sust, og‘ir nutqiy nuqsonlarga ega, harakat-tayanch tizimida muammolari bo‘lgan, rivojlanishi kechikkan, ko‘p nuqsonli hamda autizm sindromli bolalar haqida ma’lumot berilgan. Tasviriy san’at mashg‘ulotlari bunday bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, mayda motorikasini takomillashtirish, tasavvur va tafakkurini boyitish, diqqatini jamlash hamda o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifodalashiga yordam beradi. Shuningdek, mashg‘ulotlar korreksion-rivojlantiruvchi ta’limning muhim vositasi sifatida bolaning mavjud imkoniyatlarini rivojlantirish va ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashadi.

KALIT SO‘ZLAR

Alohida yordamga muhtoj bolalar, tasviriy san’at, korreksiya, kompensatsiya, korreksion-rivojlantiruvchi ta’lim, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar, ijodiy faoliyat, mayda motorika, ijodiy qobiliyat, tasavvur, tafakkur, autizm, maxsus pedagogika.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается значение изобразительного искусства для детей, нуждающихся в особой помощи. Освещаются особенности детей с различными нарушениями развития, в том числе детей с нарушениями слуха и зрения, интеллектуальными и тяжёлыми речевыми нарушениями, нарушениями опорно-двигательного аппарата, задержкой психического развития, множественными нарушениями, а также детей с аутизмом. Занятия изобразительным искусством способствуют развитию творческих способностей, мелкой моторики, воображения, мышления и внимания, а также помогают детям выражать свои мысли и эмоциональное состояние. Изобразительная деятельность является важным средством коррекционно-развивающего обучения и способствует развитию возможностей ребёнка и его социальной адаптации.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

дети, нуждающиеся в особой помощи, изобразительное искусство, коррекция, компенсация, коррекционно-развивающее обучение, дети с нарушениями развития, творческая деятельность, мелкая моторика, творческие способности, воображение, мышление, аутизм, специальная педагогика.

ABSTRACT

This article discusses the importance of visual arts for children who need special assistance. It describes children with various developmental disabilities, including children with hearing and visual impairments, intellectual and severe speech disorders, motor disabilities, delayed psychological development, multiple disabilities, as well as children with autism. Visual arts activities contribute to the development of creative abilities, fine motor skills, imagination, thinking, and attention. They also help children express their thoughts and emotions. Visual arts are an important means of correctional and developmental education and contribute to the development of children's abilities and their social adaptation.

KEYWORDS

Children requiring special assistance, visual arts, correction, compensation, correctional and developmental education, children with developmental disabilities, creative activity, fine motor skills, creative abilities, imagination, thinking, autism, special pedagogy.

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar - sensor organlarning orttirilgan yoki tug'ma organik jarohatlanishi natijasida markaziy nerv sistemasi yoki harakat-tayanch apparati psixik funksiyalarning normal rivojlanishida kamchiliklarga ega bo'lgan bolalar kiradi. Ba'zi hollarda rivojlanishdagi kamchiliklar markaziy nerv sistemasi yoki analizatorlardagi nuqsonlar bilan bog'liq bo'lmasdan, mikroijtimoiy muhit sabablari natijasida kelib chiqqan bo'ladi. Bularga oiladagi tarbiya, ijtimoiy, emotsional muhitning yomonligini kiritishimiz mumkin. Hozirgi paytda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bir qancha kategoriyalarga ajratilgan:

- eshitish kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar, kech kar bo'lib qolgan bolalar);
- ko'rish qobiliyati zaif (ko'r, zaif ko'ruvchi bolalar);
- aqli zaif - oligofren bolalar;
- og'ir nutqiy nuqsonlari bor bolalar;
- harakat-tayanch a'zolarida kamchiliklari bo'lgan bolalar;
- ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar;
- rivojlanishida murakkab ko'p nuqsonli bolalar;
- autizm sindromli bolalar.

Ushbu nuqsonlarni bartaraf etishda korreksiya va kompensatsiya ishlari olib boriladi. Korreksiya - to'g'irlash degan ma'noni bildiradi. O'quvchilarda mavjud bo'lgan kamchiliklar ta'lim-tarbiya asosida olib boriladi.

Har bir bolaga tasviriy faoliyat yengil, tushunarlidir, bu esa uning xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Rasm chizishga doir jihozlar turlicha: qalam, bo'yoq qalam, bo'yoq, bo'r, qog'oz, hatto tayoqcha bilan ham qum ustiga rasm chizish mumkin. Yana tasvirni soxtalashtirgan hajmdan tayyorlash usullari bilan, odamlar qadimda loydan idishlar, taqinchoqlar, odam va hayvon shakllarini yasashgan. Bundan tashqari tasviriy faoliyat o'zini namoyon etishidagi eng qulay vositalardan biridir. Tasviriy faoliyatning yana bir e'tiborga molik xususiyati shundaki, u insonni mehnatga yo'naltiradi. Rasm chizish jarayonida yoki boshqa tasviriy faoliyatlarda esa nafaqat inson a'zolari balki yordamchi vositalardan rasm uchun materiallar yoki o'lcham buyumlari, ish qurollari hamda asboblardan foydalaniladi. Masalan, loy yoki plastilinga tayoqcha yordamida kerakli shaklni berish, bo'yoqli cho'tkada bo'yash, qaychi yordamida qog'ozni qirqish. Bu material va qurollar turli murakkab ishlarga vositachilik vazifasini o'taydi, shuning uchun bolalarni tasviriy faoliyat darsida texnik malaklarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zarur harakat va amallarni o'zlashtirilishi (ayniqsa umumiy va mayda harakatlar) - eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning umumiy rivojlanishidagi muhim vosita bo'lib, u hayotda kerak bo'ladigan onglilik, ziyraklilik hamda yaratuvchanlik kabi sifatlarini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Alohida yordamga muhtoj bolalar uchun tasviriy san'atning ahamiyati. Bolalar bilan ishlashdan avval mutaxassis o‘z oldiga maqsad qo‘yib olish kerak, bunda nuqsoni bor bolalar tasviriy san'at uskunalaridan to‘g‘ri foydalanishni va zararli narsalarni anglay olishni tushunishlari kerak. Tasviriy san'atdan maqsad faqatgina bo‘sh vaqtni o‘tkazish emas, balki nuqsoni bor bola uchun kerakli muhim narsalarni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari nuqsoni bor bolalarga tasviriy san'at sensor harakatida muhim ahamiyatga ega. Tasviriy san'at nuqsoni bor bolalarni hayotga tayyorlaydi va bu orqali ular boshqalarga bo‘lgan munosabatlarini yo'lga qo‘yadi. Ular o‘rganayotganlarida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, lekin tasviriy san'at ularning sezgi a'zolarini tiklashga yordam beradi. Bu ayniqsa ko‘zi ojiz bolalar va eshitishida nuqsoni bor bolalarda muhim rol o‘ynaydi. Amaliy mashg‘ulotlardan so‘ng nuqsoni bor bolalar tabiiy materiallar va asboblar bilan ishlashlari mumkin. Ishlash orqali ular o‘zlari tayyorlagan narsalarga nisbatan quvonch va faxr hissini sezadilar.

Rasm orqali olib boriladigan didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda mustaqillikni rivojlantirib boradi. O‘yin davomida korreksiyaning asosiy mazmuni shundan iboratki, bunda o‘quvchi mustaqil harakat qiladi va o'ylaydi, qiyinchilik bo‘lganda o‘qituvchi yordam beradi. Bunda o‘quvchilar predmetlarni bir-biri bilan solishtiradilar, katta-kichikligini aniqlaydilar, ranglarni ajratadilar.

Ushbu faoliyatlar bolaning nafaqat ijodiy qobiliyatini, balki bilish va harakat ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

1. Mayda motorikani rivojlantiradi. Qalam, mo‘yqalam, qaychi, plastilin kabi vositalardan foydalanish qo‘l va barmoqlarning mayda harakatlarini rivojlantiradi. Bu esa bolaning kundalik hayotdagi mustaqil faoliyatiga ham yordam beradi.

2. Diqqat va xotirani rivojlantiradi. Rasm chizish yoki tayyor namunaga qarab shakl yaratish jarayonida bola topshiriqqa e’tibor qaratadi, ranglar va shakllarni eslab qoladi.

3. Tasavvur va tafakkurni rivojlantiradi. Bola o‘z tasavvuridagi predmet va hodisalarni rasm orqali ifodalashi mumkin. Masalan, “Mening oilam”, “Mening uyim”, “Sevimli o‘yinchog‘im” kabi mavzularda rasm chizish bolaning fikrlash va tasavvurini kengaytiradi.

4. Nutq rivojiga yordam beradi. Rasm asosida suhbat tashkil etish orqali bolaning so‘z boyligini oshirish mumkin. Pedagog bolaning chizgan rasmi haqida savollar beradi: “Bu nima?”, “Rasmda kim bor?”, “Qaysi rangdan foydalanding?” Shu orqali bola o‘z fikrini gapirishga o‘rganadi.

5. Hissiy holatini ifodalash imkonini beradi. Ba’zi bolalar o‘z his-tuyg‘ularini og‘zaki ifodalashda qiynaladilar. Rasm chizish ularga o‘z kechinmalarini rang va tasvir orqali ifodalash imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san’at alohida yordamga muhtoj bolalar uchun oddiy ijodiy mashg‘ulot bo‘libgina qolmay, ta’limiy, tarbiyaviy va korreksion-rivojlantiruvchi vosita ham hisoblanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan tasviriy faoliyat bolaning mayda motorikasi, tafakkuri, tasavvuri, diqqati, nutqi va ijodkorligini rivojlantirishga, shuningdek, o‘zini erkin ifodalashi va ijtimoiy muhitga moslashishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. J. A Rubin Bolalar art terapiyasi 2012.
2. Susan D. Loesel The Intersection of ARTs education and special education 2012.